O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY IQTISODIY TARAQQIYOTNI JADALLASHTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Vaxobova Madina

Annotatsiya. *Mazkur tezisda O‘zbekistonda hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish mexanizmlari, mintaqaviy iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishning iqtisodiy mexanizmlari hamda iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish masalalari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, hududlarning ishlab chiqarish imkoniyatlari, innovatsion infratuzilmasi va tadbirkorlik uchun yaratilgan shart-sharoitlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida mintaqaviy iqtisodiy taraqqiyotni yanada takomillashtirish uchun kerakli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *hududiy iqtisodiyot, iqtisodiy taraqqiyot, innovatsion mexanizmlar, investitsiya, mintaqaviy rivojlanish, sanoat, raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy salohiyat.*

Bugungi globallashgan dunyoda mamlakat o‘z iqtisodiy barqarorligini saqlab qolish va uni yanada takomillashtirish uchun muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlarni inobatga olishi, shuningdek , hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, umumiy teng imkoniyatlarni shakllantirish, yangi innovatsion g‘oyalarni qo’llab-quvvatlashi bilan bevosita bog‘liq. Tadqiqotning maqsadi mamlakatimizda hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish doirasida, ularda ishlab chiqaruvchi va tadbirkorlar uchun teng shart-sharoitlarini yaratish ko’zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi joriy narxlarda 1 849,65 trln so‘mni tashkil etgan va real o‘sish sur’ati 7,7 foizga teng bo‘lgan. Shu davrda sanoat tarmog‘ining o‘sishi 6,8 foizni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish va sanoat tarmoqlarining muhim o‘rnini ko‘rsatadi.

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari tahlili ham iqtisodiy salohiyatning notekis taqsimlanganini namoyon etadi. Xususan, 2025-yilda Toshkent shahrida 207,3 trln so‘m, Navoiy viloyatida 195,2 trln so‘m, Toshkent viloyatida 170,3 trln so‘m sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan. Surxondaryo viloyatida esa ushbu ko‘rsatkich 18,8 trln so‘mni tashkil etgan. Bu holat hududlar o‘rtasida sanoat ishlab

chiqarish imkoniyatlari va iqtisodiy faollik darajasi bo‘yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Mazkur tafovutlarni kamaytirish uchun hududlarning tabiiy, iqtisodiy va mehnat resurslariga mos ixtisoslashuvini rivojlantirish, ishlab chiqarish zanjirlarini kengaytirish hamda investitsiyalarni iqtisodiy jihatdan istiqbolli, biroq yetarlicha rivojlanmagan hududlarga yo‘naltirish zarur.

Xulosa. Mamlakatimizda mintaqaviy iqtisodiy taraqqiyotni yanada jadallashtirish doirasida iqtisodiy o'sishning barqarorligi, aholi farovonligi va ish bilan bandligi muhim shartlardan biridir. Tahlillar turli hududlardagi ishlab chiqarish imkoniyatlari va sanoat rivojlanish doirasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Hududlarning iqtisodiy salohiyatini baholash asosida individual innovatsion rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish;
- Investitsiyalarni iqtisodiy o‘sish imkoniyatlari yuqori, ammo ishlab chiqarish infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmagan hududlarga yo‘naltirish;
- Oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida innovatsion hamkorlikni kengaytirish;
- Raqamli monitoring tizimlari orqali hududiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar samaradorligini muntazam baholab borish;
- Mahalliy resurslarni chuqur qayta ishlash, klasterlar va hududlararo kooperatsiya tizimini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, hududiy iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda innovatsion mexanizmlardan kompleks foydalanish, mahalliy imkoniyatlarni to‘g‘ri baholash va iqtisodiy boshqaruvning samarali usullarini joriy etish O‘zbekistonning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-martdagi 128-son qarori. O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024–2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2025-yil yanvar–dekabr. – Toshkent, 2026.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi bo‘yicha yillik statistik ma’lumotlar. – SIAT statistik ma’lumotlar bazasi, 2026.

4. O‘zbekiston Respublikasi Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi. Hududlarni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyalari bo‘yicha materiallar. – 2026.